

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601764>

## AGROTURIZM – QISHLOQ XO‘JALIGIDA YANGI DAROMADLAR KALITI

**Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

[ergashboyevminghojiddin@gmail.com](mailto:ergashboyevminghojiddin@gmail.com)

**Eshmuradov Ulug‘bek Tashmuratovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası” mudiri

<https://orcid.org/0009-0005-5325-9176> [ulugbek1983.05@gmail.com](mailto:ulugbek1983.05@gmail.com)

***Annotatsiya:** Jamiyat kundan kunga rivojlanib, ravnaq topib bormoqda. Iqtisodiyotning bosh masalasi bo‘lmish ehtiyojlarning cheklanganligi borgan sari o‘z so‘zini o‘tkazmoqda. Bu esa o‘z navbatida iqtisodchi-olimlardan ko‘proq izlanishlar olib borish va yangiliklar yaratishga, innovatsiya va sartaplarni hayotga tatbiq etishga chorlaydi. Xususan, insonlarning ikkilamchi va birlamchi ehtiyojini birdan qondirish katta yutuq hisoblanadi va buni <<agroturizm>> deb atalgan yangi soha amalga oshiradi. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalish bilan yaqindan tanishishingiz va qishloq xo‘jaligida yangi daromad manbalarini kashf etishingiz mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** Turizm, agroturizm, turistlar, statistika, fermer xo‘jaliklari, turizm qishlog‘i.*

## АГРОТУРИЗМ – КЛЮЧ К НОВЫМ ДОХОДАМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

***Аннотация:** Общество развивается и процветает день ото дня. Ограничение потребностей, являющееся главной проблемой экономики, все больше дает о себе знать. Это, в свою очередь, побуждает экономистов-ученых проводить больше исследований и создавать инновации, внедрять инновации и методы. В частности, удовлетворение второстепенных и первичных потребностей людей одновременно является большим достижением, и это делается благодаря новой области под названием*

«агротуризм». В этой статье вы сможете ознакомиться с этим направлением и открыть для себя новые источники дохода в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** Туризм, агротуризм, туристы, статистика, фермерские хозяйства, туристическая деревня.

## AGROTOURISM IS THE KEY TO NEW INCOME IN AGRICULTURE

**Abstract:** Society is developing and prospering day by day. The limitation of needs, which is the main problem of the economy, is increasingly becoming apparent. This, in turn, encourages economists-scientists to conduct more research and create innovations, to implement innovations and solutions. In particular, satisfying the secondary and primary needs of people at once is a great achievement, and this is realized by a new industry called <<agrotourism>>. In this article, you can get acquainted with this direction and discover new sources of income in agriculture.

**Keywords:** Tourism, agrotourism, tourists, statistics, farms, tourist village.

Dunyo o'zgarishga yuz tutmoqda, albatta bunga asosiy sabab insonlar va ularning dunyo qarashlari o'zgarishi bilan bog'liq. Bugungi kunda insoniyat shuni anglab yetdiki, hech nima inson qadrichalik ahamiyatga ega emas va inson kapitali biz asosiy e'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan omildir. Bu albatta hayotimizning qolgan jabhalariga ta'sir etmay qolmaydi. Aynan iqtisodiyotda birlamchi ehtiyojlardan ko'ra ikkilamchi ehtiyojlarning ham ahamiyati ortdi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Buning yaqqol misolini turizm sohasi rivojida ko'rishimiz mumkin. Hech kimga sir emaski, ushbu soha dunyo iqtisodiyotida yaxshigina daromadli sohaga aylanib ulgurdi va buning asosiy sababi insonlarning ikkilamchi ehtiyoji ortishi deya ko'rsatishimiz mumkin. Shuning uchun ham ko'plab rivojlangan mamalakatlar ushbu sohaga katta e'tibor qaratib, uning rivoji uchun katta investitsiyalar kiritmoqda. Ushbu sa'y-harakatlarning samarasini Fransiya, Italiya kabi bir qator turizmدا yetakchi davlatlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Bizning yurtimizda ham vatanimiz rivoji uchun amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar kabi ushbu yo'nalishga ham yaxshigina e'tibor qaratilmoqda. Xususan, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil 5-yanvardagi PF-

5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori yurtimizga sayyohlar oqimini oshirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish va sohani yanada yuksaltirish borasidagi yana bir harakat desak bo‘ladi[1]. Zero, yurtimizda ushbu soha rivojiga juda katta e‘tibor qaratilib, iqtisodiyotimizni yanada qudratli qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu sa‘y-harakatlar natijasi ko‘z oldimizda gavdalanmoqda, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida qariyb 7,3 mln nafar chet el fuqorolari turistik maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 1,15 mln nafarga yoki 18,8 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin[2].(1-rasm)



**1-rasm.** O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar soni ( 2024-yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra)<sup>1</sup>

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, turizmning bir turi nafaqat insonlarni ikkilamchi ehtiyojini, balki birlamchi ehtiyojini ham qondira oladi. Bu bizga yangi termin sifatida kirib kelayotgan <<agroturizm>>dir. Agroturizm o‘zi nima?! Agroturizm – bu sayyohlarning qishloq joylarga, fermer xo‘jaliklariga tashrif buyurib,

nafaqat ularning hayoti bilan tanishish, balki bevosita ushbu jarayonlarda qatnashish imkoniyatni taqdim etuvchi turizm turi hisoblanadi[3]. Hozirgi kunda bu yo‘nalishing ham jadal rivojlanib borayotganligiga guvoh bo‘layabmiz. Sababi agroturizm bu yangi daromad manbalari kalitidir. U ayniqsa fermerlar uchun katta foyda olib keladi. Buni yaqqol misolini bir qancha chet davlatlarda kuzatishimiz mumkin, chunki ular allaqachon ushbu sohani yaxshi yo‘lga qo‘yib olgan. Misol uchun, Nyu-England qishloq xo‘jaligi statistika xizmati tomonidan o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, 2000 hamda 2002 yillar oralig‘ida agroturizmdan olingan umumiy yillik daromad 86% ga oshgan . Karlsbaddagi Gul dalalariga tashrif buyuruvchilar bo‘yicha tadqiqot olib borilganda esa agroturizm AQShning Kalifomiya shtatidagi Karlsbad shahriga ijobiy iqtisodiy ta’sir ko‘rsatgan. Gul dalalariga tashrif buyurgan sayyohlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlari Karlsbadda taxminan 2,3 million dollar va San-Diego okrugida taxminan 7,76 million dollarni tashkil etdi [4]. Gavayi Qishloq xo‘jaligi statistika boshqarmasi (2004) ta’kidlashicha, Gavayidagi fermerlar agroturizmdan olingan daromadlar nuqtai nazaridan, bevosita sayyohlarga sotilgan tovarlardan umumiy daromadlarning taxminan 40% ni; keyin boshqa fermer xo‘jaliklari mahsulotlari va esdalik buyumlarining chakana savdosi (26,8%); ochiq havoda dam olish (14,8%); turar joy (7,4%); ta’lim, shu jumladan qishloq xo‘jaligiga sayohatlar (3,5%); va o‘yin-kulgi (3,1%)lardan oladi [5]. Ushbu statistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bu soha qishloq xo‘jaligida daromadlar oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va fermerlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalish faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish va buning natijasida xorijiy investitsiyalar kiritish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy aholi hamda fermer, dehqon xo‘jaliklari daromadlarini bir necha barobarga oshirish maqsad qilib olindi va buning samarasini Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida joylashgan “Varganza” qishlog‘iga agroturizm qishlog‘i maqomi berilishi orqali ko‘rishimiz mumkin. 2019-yilning 28-sentabr kuni o‘tkazilgan xalqaro anor agrofestivalida “Varganza” MFY raisiga agroturizm qishlog‘ining ramziy kaliti topshirildi.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi



Varganza qishlog‘i aholisi azaldan anorchilik bilan shug‘ullanib keladi. Fermer xo‘jaliklari yer maydonlari va aholi tomorqalarida anorning bir nechta navlari yetishtiriladi. Qashqadaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma‘lumotiga ko‘ra, varganzalik ishbilarmonlar har yili ming gektardan ziyod maydondan 5-6 ming tonna hosil terib, qo‘shni mamlakatlarga eksport qilishadi.«Qishloq ahlining tirikchilik manbasi – asosan anorchilik. Ayol-u erkak, yosh-u qari to‘rt fasl anor parvarishi bilan shug‘ullanadi. Shu bois bu yerda nochor yashayotgan oilalar, chet el mamlakatlarida ish qidirib, sarson yurgan muhojir fuqarolar umuman yo‘q», – deydi «Varganza» MFY raisi Ziyodulla Mirzayev[6].(2.1-2.2-2.3-rasmlar)



### 2.1-2.2-2.3-rasmlar. “Varganza” agroturizm qishlog‘i ochilish marosimi<sup>2</sup>

Quvonarlisi, yurtimizda bunday obyektlar ko‘payib bormoqda va bundan ko‘zlangan asl maqsad aholi farovonligi va xalqimiz turmush shart-sharoitlari borgan sari yaxshilanmoqda. Shuning uchun ham agroturizmni nafaqat qishloq xo‘jaligida, balki butun iqtisodiyotda istiqbolli sohalardan biri va yangi daromadlar manbasi deya aytishimiz mumkin.

2. kun.uz saytidan olingan fotolar

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanishiga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2019-yil 5-yanvar. PF-5611-son.//lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi. 2024-yil yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar soni.//www.stat.uz
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/agroturizm-o-zbekistondagi-fermerlar-va-mahalliy-aholi-uchun-potensial-imkoniyatlar>
4. Lobo R, Goldman G, Jolly D, Walker B, Schrader W, Parker S (1999). Agritourism Benefits Agriculture in San Diego County. Small Farm Center, University of California at Davis. Reprinted from California Agriculture. [http : //www.sfc.ucdavis.edu/agritourism/agritourSD.html](http://www.sfc.ucdavis.edu/agritourism/agritourSD.html).
5. McGehee N G, Kim K, Klueenberg S, Bratsch T (2002). Agri-tourism in Virginia
6. O'zbekistondagi ilk agroturizm qishlog'i e'lon qilindi. <https://kun.uz/64655775>